



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 190 sahifa,
1-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining innovatsion pedagogik kompetentligini rivojlantirish mexanizmi	10
<i>Mirzaraxonova Maftuna Ibroximjon qizi</i>	
Elementlarini integratsiya qilish: nazariy va amaliy yondashuv	13
<i>Ne'matov Karimjon Shavkat o'g'li</i>	
O'qish savodxonligi darslarida kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari ...	19
<i>Mahmudova Shoirra Shavkat qizi</i>	
O'zbek milliy musiqasi asosida talablarda estetik did va ijro madaniyatini rivojlantirish metodikasi.....	25
<i>Gadoyeva Muborak Jumaqulovna</i>	
O'quvchilarning yozuv kompetensiyasini baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari.....	30
<i>Abdurashidova Xafiza Abdurashidovna</i>	
Xurshid Do'st Muhammad qissalarida rivoyatchi strategiyasi.....	34
<i>Uzoqova Nargiza Yuldosh qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarining ahamiyati	37
<i>Eshpulatov Shakir Nabiyevich, Ahrorova Ozoda Amriddinovna</i>	
"Xonada o'simliklarni o'stirish" intellekt xaritasi (Mind Map) yordamida o'quvchilarda ekologik tarbiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish	41
<i>G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy-pedagogik jihatlari.....	46
<i>Joldasov Ixtiyor Suyundikovich</i>	
Boshlang'ich sinflarda iqtisodiy tarbiyani shakllantirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari	50
<i>N. Asadov</i>	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda kreativ kompetentlik va kasbiy muvaffaqiyat o'rtasidagi bog'liqlik mezonlari.....	53
<i>G. Xamidova</i>	
Gamifikatsiya elementlarining bakalavr talabalarini raqamli resurs yaratishga motivatsiyasiga ta'siri	56
<i>Maxkamova Dilshodaxon Xabibjon qizi</i>	
The Influence of Family Parenting Style on the Formation of Primary School Students' Personality	59
<i>Berdiyeva Mohloroyim Mirzohid qizi</i>	
Noto'liq oilalardagi onalarning tarbiyaviy uslublari va farzandlarining ijtimoiy-psixologik moslashuvi (O'zbekiston namunasida).....	64
<i>Ismoiljonov Ravshan Baxtiyor o'g'li</i>	
Raqamli pedagogika sharoitida interfaol ta'lim metodlari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish.....	69
<i>Jumaniyozova Donoxon Olimboyevna, Bekmuratova Muhayyo Uralbayevna</i>	
Matematika ta'limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari.....	73
<i>Mirzayeva Shahlo, Qodirova Muattar Ithom qizi, Rovshanova Yulduz Shovkat qizi</i>	
O'qishga motivatsiya tushunchasi uning nazariy-psixologik tahlili.....	77
<i>Azimova Rushana Zokirjon qizi</i>	
Oliy ta'lim talabalarida akademik prokrastinatsiyaning prediktorlari: akademik motivatsiya, umid va shaxs xususiyatlari	81
<i>Shodiboyev Shohruh Shuhrat o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi markazlar integratsiyasini ta'minlash metodikasi.....	86
<i>Qahhorova Sevara Alimardonovna</i>	
O'quvchi-yoshlarni virtual olam ta'siridan himoya qilishning nazariy asoslari.....	90
<i>Isayeva Gulii Parpiyevna, Ravshanov Umidjon Abdiqodir o'g'li</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik tafakkurni oshirishda mantiqiy masalalarning o'rni	93
<i>Xilvatova Go'zal Sultonovna</i>	
Pedagogika tarixini o'qitishda talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish	97
<i>Jurayev Bobomurod Tojiyevich</i>	
Bolalarda ona tilida tinglash hissini rivojlantirish usullari	101
<i>Nurmatova Muxlisa Akmal qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirish (Kahoot, Quizlet va Moodle platformalari misolida)	106
<i>Yusupova Shahnoza Abduxafizovna</i>	
Sport maktablarida 16–18 yoshli nayza uloqtiruvchi sportchi-qizlarda portlovchi kuchni rivojlantirish	111
<i>Tursunova Surayyo Botir qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlashda "Kasbiy rivojlanish kuni" va "Kasbiy rivojlanish soati" tadbirlari: amaliyot tahlili	115
<i>Gaffarov Azizjon Muhammadsaidovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarining faoliyatini samarali tashkil etishning nazariy jihatlari (Learning outcomes) asosida	124
<i>Rabbimova Shaxnoza Soyib qizi</i>	
Bo'lg'usi o'qituvchilarda axloqiy madaniyat fazilatlarini qaror toptirishning pedagogik mexanizmlari	128
<i>G'aniyeva Sayyora Saidmurod qizi</i>	
Yengil atletikachilarning musobaqa jarayonida tibbiy-pedagogik monitoringini takomillashtirish	132
<i>Mamadaliyev Abror Akbarjonovich</i>	
Sun'iy intellekt yordamida rus tilini o'qitish va uning samaradorligi	137
<i>Yagafarova Nazilya Rafailovna, Nazarov Sardor, Onorboyev Kamronbek</i>	
O'quvchilarda ilmiy dalillarni tahlil qilish va xulosa chiqarish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	142
<i>Baymurotova Mukaddas Xamdamovna</i>	
Ilmiy muxokamalarda pragmatik kompetentlikning roli	150
<i>Eshbo'riyeva Aziza Muhiddinovna</i>	
Talabalarda kognitiv-pragmatik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning mazmuni	155
<i>To'rabekova Aziza Mirzabek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda motivatsiyani shakllantirishda interaktiv metodlarning o'rni	159
<i>Qamchibekova Roziyaxon Xasanboy qizi</i>	
Проблема разграничения понятий "концепт" и "понятие" в современной лингвистике: лингвосомиотический и когнитивно-дискурсивный анализ	164
<i>Якунина Ангелина Алишеровна</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida amaliy bezak san'ati naqsh elementlarini raqamli qayta ishlash va arxivlashtirish	169
<i>Jabbarov Rustam Ravshanovich</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda Design Thinking texnologiyasining metodik imkoniyatlari	176
<i>Amanbayeva Oydin Urazali qizi</i>	
Tez qalamchizgi mashqlarida psixologik-pedagogik yondashuvlarning ahamiyati	181
<i>Suyunov Navro'z Alisher o'g'li</i>	
Innovatsion yondashuv orqali bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish konsepsiyasi	186
<i>Xalilov Lenar Shevketovich</i>	



SUN'IY INTELEKT YORDAMIDA RUS TILINI O'QITISH VA UNING SAMARADORLIGI

Yagafarova Nazilya Rafailovna

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali o'qituvchisi

ORCID: 0009-0003-3298-1499

Nazarov Sardor

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali 7-01-25-guruh talabasi

Onorboyev Kamronbek

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali 11-01-25-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellekt vositalaridan foydalangan holda rus tilini o'qitishning nazariy asoslari, amaliy usullari va samaradorligi tahlil qilinadi. Maqolada zamonaviy SI vositalari (mobil ilovalar, chatbotlar, talaffuzni tahlil qiluvchi tizimlar, adaptiv o'quv platformalari) haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, O'zbekistonda rus tilini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari – ikki tilli muhit, mahalliy platformalar ("Zabon"), o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlari (UNESCO IITE kurslari, "Bir million prompterlar" loyihasi) yoritilgan. Maqolada sun'iy intellektdan foydalanishning afzalliklari (shaxsiylashtirish, tezkor qayta aloqa, qulaylik) va cheklovlari (emotsional aloqaning yo'qligi, madaniy kontekstni tushunmaslik, internet muammolari) ko'rsatilgan. Rus tili o'qituvchilari uchun darsni rejalashtirish, talaffuz va grammatikani o'rgatish, baholash va malaka oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Maqola yakunida ta'limda eng samarali model – sun'iy intellekt va o'qituvchi hamkorligiga asoslangan gibrid yondashuv ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, rus tili, o'qitish metodikasi, gibrid ta'lim, mobil ilovalar, chatbotlar, adaptiv o'qitish, talaffuzni tahlil qilish, O'zbekiston, ikki tillilik, "Zabon" platformasi, o'qituvchilar malakasini oshirish, raqamli transformatsiya, kommunikativ kompetensiya, gamifikatsiya.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations, practical methods, and effectiveness of teaching the Russian language using artificial intelligence tools. It provides information on modern AI tools (mobile applications, chatbots, pronunciation analysis systems, adaptive learning platforms). The article also highlights the specific features of teaching Russian in Uzbekistan – the bilingual environment, local platforms ("Zabon"), and teacher training programs (UNESCO IITE courses, the "One Million Prompters" project). The advantages of using artificial intelligence (personalization, instant feedback, convenience) and its limitations (lack of emotional connection, inability to understand cultural context, internet connectivity issues) are discussed. Practical recommendations for Russian language teachers are provided on lesson planning, teaching pronunciation and grammar, assessment, and professional development. The article concludes that the most effective model in education is a hybrid approach based on the collaboration between artificial intelligence and teachers.

Key words: artificial intelligence, Russian language, teaching methodology, hybrid education, mobile applications, chatbots, adaptive learning, pronunciation analysis, Uzbekistan, bilingualism, "Zabon" platform, teacher professional development, digital transformation, communicative competence, gamification.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические основы, практические методы и эффективность преподавания русского языка с использованием инструментов искусственного интеллекта. Представлена информация о современных инструментах ИИ (мобильные приложения, чат-боты, системы анализа произношения, адаптивные обучающие платформы). Также освещены особенности преподавания русского языка в Узбекистане – двуязычная среда, местные платформы ("Zabon"), программы повышения квалификации учителей (курсы ЮНЕСКО IITE, проект "Один миллион промптеров"). Рассмотрены преимущества использования искусственного интеллекта (персонализация, мгновенная обратная связь, удобство) и его ограничения (отсутствие эмоциональной связи, непонимание культурного контекста, проблемы с интернетом). Даны практические рекомендации для учителей русского языка по планированию уроков, обучению произношению и грамматике, оцениванию и повышению квалификации. В заключении отмечается, что наиболее эффективной моделью в образовании является гибридный подход, основанный на сотрудничестве искусственного интеллекта и учителя.

Ключевые слова: искусственный интеллект, русский язык, методика преподавания, гибридное обучение, мобильные приложения, чат-боты, адаптивное обучение, анализ произношения, Узбекистан, двуязычие, платформа "Zabon", повышение квалификации учителей, цифровая трансформация, коммуникативная компетенция, геймификация.

KIRISH

Bugungi kunda texnologiyalar jadal rivojlanib, hayotimizning barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ta'lim sohasi ham bundan mustasno emas. Xususan, chet tillarini o'qitishda sun'iy intellekt (SI) vositalaridan foydalanish tobora keng ommalashmoqda. O'zbekistonda rus tili millatlararo muloqot vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. 2026–yilgi ma'lumotlarga ko'ra, respublikada 862 ta maktabda ta'lim rus tilida olib borilmoqda. Shu bilan birga, ko'plab o'zbekistonliklar rus tilini o'rganishga qiziqish bildirmoqda, chunki ushbu til ta'lim, kasbiy faoliyat va kundalik muloqot jarayonida muhim o'rin egallaydi.

Ushbu maqolada sun'iy intellekt yordamida rus tilini o'qitish jarayonining zamonaviy shakllari, uning samaradorligi, O'zbekistondagi mavjud tajribalar hamda rus tili o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar yoritiladi.

Sun'iy intellekt til o'qitish jarayonida keng imkoniyatlarni yaratadi. Jumladan, shaxsiylashtirilgan yondashuv SI texnologiyalarining eng muhim afzalliklaridan biri hisoblanadi. Sun'iy intellekt har bir o'quvchining bilim darajasi, yo'l qo'yadigan xatolari va o'zlashtirish tezligini tahlil qilib, unga mos topshiriqlarni taklif etadi. Natijada o'quv jarayoni individual ehtiyojlarga moslashtiriladi.

Shuningdek, sun'iy intellekt xatolarni tezkor aniqlash va tuzatish imkonini beradi. An'anaviy dars jarayonida o'qituvchi xatolarni tekshirish uchun ma'lum vaqt sarflasa, SI vositalari xatoni darhol ko'rsatib, uning to'g'ri variantini izohlaydi.

Suhbat amaliyotini rivojlantirishda ham SI texnologiyalarining ahamiyati katta. Sun'iy intellekt asosida ishlovchi chatbotlar yordamida o'quvchilar istalgan vaqtda rus tilida muloqot qilishlari mumkin. Bu esa ularda erkin fikrlash, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish hamda til to'sig'ini kamaytirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, maxsus dasturlar o'quvchilarning talaffuzini tahlil qilib, mavjud kamchiliklarni aniqlaydi va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beradi. Gamifikatsiya elementlari, ya'ni ballar, darajalar va rag'batlantiruvchi mukofotlar esa o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi.

Bugungi kunda rus tilini o'rganishga mo'ljallangan ko'plab mobil ilovalar va raqamli platformalar mavjud. Jumladan, Duolingo, Memrise va Quizlet kabi ilovalar interaktiv mashqlar, lug'at boyligini oshirish, talaffuz va grammatik ko'nikmalarni mustahkamlash imkonini beradi. Ushbu platformalar o'quvchilarga mustaqil va qulay tarzda ta'lim olish imkoniyatini yaratadi.

“Zabon” platformasi O'zbekistonda yaratilgan yirik onlayn rus tilini o'rganish tizimlaridan biri hisoblanadi. Mazkur platforma o'zbek auditoriyasining ehtiyojlariga moslashtirilgan bo'lib, unda hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar keng qo'llanilgan. “Zabon AI” sun'iy intellekt yordamchisi esa o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Platformaning samaradorligi yuqori natijalar bilan baholanmoqda.

Shuningdek, ChatGPT va Yandex Alisa kabi chatbotlar yordamida foydalanuvchilar rus tilida erkin suhbat qurishlari, matn yaratishlari, grammatik xatolarni tuzatishlari hamda yangi so'zlarni o'rganishlari mumkin.

Google Classroom va Moodle platformalari esa o'qituvchilarga gibrid hamda “aylantirilgan sinf” modeli asosida darslarni tashkil etish imkoniyatini beradi. Bunday yondashuvda o'quvchilar darsdan avval nazariy materiallar bilan tanishib chiqadi, auditoriya mashg'ulotlarida esa ko'proq amaliy faoliyat va muloqotga e'tibor qaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ham sun'iy intellektning ta'limdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Jumladan, Komilova va Shokirov (2025–yil) o'z tadqiqotlarida zamonaviy texnologiyalarning rus tilini o'qitishga ta'sirini o'rgangan. Tadqiqotchilar mobil ilovalar va onlayn platformalar o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini, nutq ravonligini hamda madaniy kompetensiyasini rivojlantirishini ta'kidlaganlar.

Begnayeva (2025–yil) esa sun'iy intellekt texnologiyalarini maktablarda xorijiy tillarni o'qitish jarayoniga integratsiya qilish metodikasini tahlil qilgan. Uning fikricha, AI asosida ishlovchi chatbotlar, ovozni aniqlash tizimlari va adaptiv o'quv platformalari ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Murodova tomonidan 2026–yilda O'zbekistonning to'rtta oliy ta'lim muassasasida 140 nafar talaba ishtirokida o'tkazilgan tajriba natijalari ham sun'iy intellekt asosidagi adaptiv o'qitish tizimlari o'quvchilarning individual o'zlashtirish sur'atlarini hisobga olib, ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda rus tilini o'qitish jarayonining samaradorligini o'rganishga qaratilgan tizimli va kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tavsifiy tahlil hamda umumlashtirish metodlari qo'llanildi.



Maqolada xorijiy va mahalliy olimlarning sun'iy intellektni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha ilmiy ishlari o'rganildi. Jumladan, rus tilini o'qitishda mobil ilovalar, chatbotlar, adaptiv o'quv platformalari va talaffuzni tahlil qiluvchi dasturlarning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, O'zbekistonda rus tilini o'qitishning mavjud holati, ikki tilli muhitning ta'siri hamda mahalliy "Zabon" platformasi faoliyati qiyosiy jihatdan baholandi.

Tadqiqot jarayonida UNESCO IITE kurslari, AiStudy.uz platformasi hamda zamonaviy raqamli ta'lim vositalariga oid ma'lumotlardan foydalanildi. Sun'iy intellekt vositalarining afzallik va cheklovlari pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinib, ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri o'rganildi.

Bundan tashqari, tadqiqotda rus tili o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilib, gibrid ta'lim modeli asosida sun'iy intellekt va an'anaviy pedagogik yondashuvlarni uyg'unlashtirish imkoniyatlari yoritildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda rus tilini o'qitish jarayoni o'ziga xos ijtimoiy-lingvistik sharoitda amalga oshirilmoqda. Mamlakatda ikki tilli muhitning mavjudligi rus tilini o'qitish samaradorligini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Aholining katta qismi o'zbek va rus tillaridan kundalik hayotda faol foydalanadi. 2024–2025–o'quv yilidan boshlab rus tilida ta'lim beriladigan maktablarda o'zbek tili faniga ajratilgan dars soatlari 35 foizga oshirilib, haftalik 20 soatdan 27 soatga yetkazildi. Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatovning ta'kidlashicha, har bir O'zbekiston fuqarosi qaysi tilda ta'lim olishidan qat'i nazar, o'zbek tilini mukammal o'rganishi, shu bilan birga rus tili hamda boshqa xorijiy tillarni ham egallashi uchun zarur sharoitlar yaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, O'zbekistonda rus tilini o'qitishga mo'ljallangan mahalliy raqamli platformalar ham faol rivojlantirilmoqda. Jumladan, "Zabon" platformasi o'zbek auditoriyasining ehtiyojlari va mentalitetiga moslashtirilgan dasturlardan biri hisoblanadi. Mazkur platformada kundalik hayotga oid misollar, milliy muhitga mos vaziyatlar va kommunikativ topshiriqlardan foydalanilgan bo'lib, bu o'quvchilarning tilni o'zlashtirish jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

O'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi ham alohida e'tibor markazida turibdi. 2025–yil aprel oyida UNESCO Ta'limda axborot texnologiyalari instituti (IITE) tomonidan rus tilida "Generativ sun'iy intellektni oliy ta'limda o'qitish vositasi sifatida qo'llash" hamda "Prompt injiniring" kurslari ishga tushirildi. Ushbu kurslar O'zbekiston, Armaniston, Ozarbayjon, Qozog'iston va boshqa davlatlar pedagoglari uchun bepul taqdim etildi. Mazkur tashabbuslar o'qituvchilarning zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekistonda "Bir million prompterlar" loyihasi ham amalga oshirilmoqda. AiStudy.uz platformasi orqali tashkil etilgan ushbu dastur doirasida foydalanuvchilar generativ sun'iy intellekt bilan ishlash, samarali promptlar yaratish hamda amaliy muammolarni innovatsion yondashuv asosida hal etish ko'nikmalarini egallamoqdalar.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi afzalliklari ko'p qirrali xarakterga ega. Avvalo, ular o'quvchilarga istalgan vaqtda hamda istalgan hududda mustaqil ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, SI vositalari individual yondashuvni ta'minlab, har bir o'quvchining bilim darajasi va ehtiyojlariga mos topshiriqlarni shakllantiradi. Bu esa o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Sun'iy intellekt asosidagi platformalar o'quvchilarga erkin va qulay muloqot muhiti yaratib, xatolardan cho'chimagan holda amaliy mashg'ulot olib borish imkonini beradi. Bundan tashqari, xatolarni tezkor aniqlash va darhol tuzatish imkoniyati o'quv materiallarini tezroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda ayrim o'ziga xos jihatlar ham mavjud. Masalan, SI tizimlari o'qituvchi kabi o'quvchilarning emotsional holatini to'liq tahlil qila olmaydi. Ayrim hollarda rus tilidagi kinoya, hazil, maqol va frazeologik birliklarni chuqur madaniy kontekst asosida talqin qilishda qo'shimcha tushuntirishlarga ehtiyoj sezilishi mumkin. Bundan tashqari, ayrim hududlarda internet infratuzilmasining rivojlanish darajasi turlicha bo'lgani sababli, raqamli platformalardan foydalanish imkoniyatlari ham farqlanishi mumkin. Shu sababli, ta'lim tizimida raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish va pedagoglarning texnologik savodxonligini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Quyida rus tili o'qituvchilari uchun sun'iy intellekt vositalaridan samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Darsni rejalashtirishda

Gibrid dars modelini qo'llash.

An'anaviy dars jarayonini sun'iy intellekt vositalari bilan uyg'unlashtirish tavsiya etiladi. Masalan, darsdan oldin o'quvchilarga Duolingo platformasi orqali yangi so'zlarni o'rganish vazifasi berilishi mumkin. Dars jarayonida esa ushbu so'zlarni jonli muloqotda qo'llash va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi.

Chatbotlardan foydalanish.

ChatGPT yoki Yandex Alisa kabi chatbotlar yordamida o'quvchilar uchun real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar tashkil etish mumkin. Jumladan, restoranda buyurtma berish, mehmonxona bron qilish yoki kundalik suhbatlarni modellashtirish orqali o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Talaffuz va grammatikani o'rgatishda**Talaffuzni tahlil qiluvchi vositalarni joriy etish.**

O'quvchilarga o'z talaffuzlarini yozib olish hamda sun'iy intellekt tahlili bilan solishtirish topshirig'ini berish maqsadga muvofiqdir. Bu usul talaffuzdagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bosqichma-bosqich bartaraf etishga yordam beradi.

Grammatik xatolar ustida ishlashni avtomatlashtirish.

Google Docs platformasining grammatik tekshiruv funksiyasidan foydalanish tavsiya etiladi. O'quvchilar yozma ishlarni bajargandan so'ng, tizim xatolarni avtomatik ravishda aniqlab, ularni tuzatish imkoniyatini yaratadi.

Madaniyatlarni kompetensiyani rivojlantirishda**Autentik materiallardan foydalanish.**

Rus tilidagi yangiliklar, podkastlar, filmlar va intervyulardan foydalanish o'quvchilarning til muhiti bilan yaqindan tanishishiga xizmat qiladi. Sun'iy intellekt vositalari yordamida ushbu materiallarni o'quvchilarning bilim darajasiga moslashtirish, jumladan, audioni sekinlashtirish yoki avtomatik tarjima funksiyalaridan foydalanish mumkin.

Baholash jarayonida**Formativ baholashni sun'iy intellekt yordamida kuchaytirish.**

Kahoot va Quizlet Live kabi interaktiv platformalardan foydalanib, dars davomida tezkor testlar tashkil etish mumkin. Bu o'quvchilarning bilim darajasini real vaqt rejimida baholash hamda dars samaradorligini oshirish imkonini beradi.

O'qituvchining kasbiy malakasini oshirishda**Sun'iy intellekt bo'yicha savodxonlikni rivojlantirish.**

UNESCO IITE tomonidan taqdim etilgan "Generativ sun'iy intellektni oliy ta'limda o'qitish vositasi sifatida qo'llash" kursidan foydalanish tavsiya etiladi. Mazkur kurs bepul bo'lib, rus tilida tashkil etilgan.

Pedagogik hamjamiyat bilan tajriba almashish.

Rus tili o'qituvchilari uchun tashkil etilayotgan forumlar, davra suhbatlari va metodik seminar-treninglarda faol ishtirok etish kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mahalliy kontekstni hisobga olishda**Internet imkoniyatlarini inobatga olish.**

Ayrim hududlarda internet infratuzilmasi hududlar kesimida turlicha rivojlanganligi sababli, oflayn rejimda ishlovchi sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, ayrim platformalarning mobil versiyalari kamroq internet trafikini talab qiladi.

Ikki tilli muhit imkoniyatlaridan samarali foydalanish.

O'quvchilarning aksariyati o'zbek va rus tillarini bilishini inobatga olib, sun'iy intellekt vositalari yordamida tillarni qiyosiy o'rganish, tarjima mashqlari va lingvistik tahlillarni tashkil etish mumkin. Bu esa o'quvchilarning til kompetensiyasini yanada boyitishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sun'iy intellekt texnologiyalari rus tilini o'qitish jarayonida samarali yordamchi vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ular o'quv jarayonini shaxsiylashtirish, o'quv materiallarini tezkor o'zlashtirish hamda ta'lim jarayonini qulay tashkil etish imkonini beradi. Ayniqsa, individual mashqlarni tashkil etish, talaffuzni takomillashtirish va grammatik ko'nikmalarni mustahkamlashda SI vositalarining samaradorligi yuqori hisoblanadi.



O'zbekistonda rus tilini o'qitish o'ziga xos ijtimoiy va lingvistik muhitda amalga oshirilmoqda. Aholining katta qismi rus tilidan kundalik hayotda foydalanadi, shuningdek, 862 ta maktabda ta'lim rus tilida olib borilishi ushbu tilning mamlakat ta'lim tizimidagi muhim o'rnini ko'rsatadi. Shu bilan birga, zamonaviy metodik bazani takomillashtirish va pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari dolzarb yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

Biroq, sun'iy intellekt vositalari til o'rganish jarayonining barcha jihatlarini to'liq qamrab olmaydi. Xususan, ular madaniy kontekst, emotsional muloqot va individual psixologik yondashuv kabi jihatlarni to'liq tahlil qilish imkoniyatiga ega emas. Shu sababli, eng samarali natijaga erishishda sun'iy intellekt texnologiyalari va malakali o'qituvchi hamkorligiga asoslangan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy pedagoglar raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga faol integratsiya qilishlari maqsadga muvofiqdir. Bu borada davlat tomonidan amalga oshirilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari, malaka oshirish dasturlari va metodik loyihalar muhim rol o'ynamoqda. Jumladan, "Zabon" kabi mahalliy platformalarning yaratilishi, UNESCO tomonidan tashkil etilayotgan kurslar hamda "Bir million prompterlar" loyihasining amalga oshirilishi ushbu yo'nalishdagi ijobiy rivojlanish tendensiyalarini namoyon etadi.

Kelajakda rus tilini o'qitishning eng istiqbolli modeli sun'iy intellekt texnologiyalari va yuqori malakali pedagoglarning hamkorligiga asoslangan gibridd ta'lim tizimi bo'lishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Zabon" – rus tilini o'rganish uchun mobil ilova // Google Play. – URL: <https://play.google.com/store/apps/details?id=uz.prep.zabon> (murojaat qilingan sana: 11.05.2026).
2. Mashrabjonova, D. (2025). Sun'iy intellektning pedagogik ta'limga integratsiyasi: qiyinchiliklar, muammolar va innovatsion yechimlar // Universal jurnal.
3. UNESCO IITE. (2025). Two New Russian-Language Online Courses on Generative AI for Educators Have Been Launched. – URL: <https://iite.unesco.org/news/two-new-russian-language-online-courses-on-generative-ai-for-educators-have-been-launched/> (murojaat qilingan sana: 11.05.2026).
4. Murodova, R. (2026). Sun'iy intellekt yordamida adaptiv o'qitish trayektoriyalarini loyihalash metodikasi // Publish Science.
5. Komilova, M., & Shokirov, M. (2025). Integrating Technology in Russian Language Teaching: Innovations, Methodologies, and Learning Outcomes // International Journal of Artificial Intelligence. – Vol. 5, No. 5. – P. 1333–1337. – URL: <https://inlibrary.uz/index.php/ijai/article/view/104799> (murojaat qilingan sana: 11.05.2026).
6. Begnayeveva, S. (2025). Maktablarda xorijiy tillarni o'qitish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilish metodikasi // Yangi O'zbekiston pedagoglari axborotnomasi. – 3(6). – B. 62–65. – URL: <https://inlibrary.uz/index.php/yopa/article/view/127613> (murojaat qilingan sana: 11.05.2026).
7. Shermatov, Sh. (2026). O'zbek tili dars soatlari rus tilida o'qitiladigan maktablarda 35 foizga ortgan // Xalq so'zi. – URL: <https://www.xs.uz/uz/post/ozbek-tili-dars-soatlari-rus-tilida-oqitiladigan-maktablarda-35-foizga-ortgan-shshermatov> (murojaat qilingan sana: 11.05.2026).
8. AiStudy.uz – sun'iy intellektni o'rganish uchun milliy platforma. (2025). – URL: <https://botany.uz/uz/2025/10/03/aistudy-uz-suniy-intellektni-organish-uchun-milliy-platfoma/> (murojaat qilingan sana: 11.05.2026).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.